



TA'LIM XIZMATLARINI SINERGIK SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MODELLARI

*Axmedova Barno Abdiyevna*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Axborot texnologiyalari”*

*kafedrasi katta o‘qtuvchisi*

**МОДЕЛИ ПОВЫШЕНИЯ СИНЕРГЕТИЧЕСКОЙ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ**

*Aхмедова Барно Абдиевна*

*Старший преподаватель кафедры «Информационные технологии»*

*Каршинского инженерно-экономического института*

**MODELS FOR INCREASING THE SYNERGISTIC EFFICIENCY  
OF EDUCATIONAL SERVICES**

*Akhmedova Barno Abdievna*

*Senior Lecturer, Department of “Information Technologies”,*

*Karshi Institute of Engineering and Economics*

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari ko‘pincha oliy ta’lim tizimining taraqqiyot darajasiga mos ravishda shakllanadi. Bugungi kunda global raqobatning kuchayishi va texnologik innovatsiyalar davrida ta’lim tizimining samaradorligi mamlakatlarning strategik rivojlanishi uchun asosiy omillardan biriga aylandi. Ta’lim tizimi endi nafaqat bilim berish, balki zamonaviy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish orqali inson kapitalining sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.



XX asrning oxiriga qadar oliy ta'lim tizimida kechikish, ya'ni mutaxassislearning oliy ta'limni tamomlashigacha bo'lgan davr, taraqqiyot jarayonini sustlashtirgan. Bugungi kunda esa innovatsion rivojlanish sharoitida ushbu kechikish minimal darajaga qisqarib, tezkor va moslashuvchan o'quv dasturlari yaratilyapti. Shuningdek, ilmiy asoslangan tahlillar, resurslarni samarali taqsimlash va ta'lim jarayonini optimallashtirish ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning asosiy mezonlari sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar ta'lim tizimidagi sinergiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Sinergiya deganda ichki va gorizontal integratsiya orqali tizimning umumiy samaradorligini oshirish tushuniladi. Ta'lim xizmatlarida sinergiyaning samaradorligini baholashda ilmiy asoslangan metodologiyalarning yetishmasligi bu boradagi muhim muammolardan biri hisoblanadi.

A.A. Garmiderning sinergetik ta'sirni baholash metodologiyasi ta'lim xizmatlarini sifat jihatidan yaxshilash uchun universal yondashuv sifatida xizmat qiladi. Ushbu metodologiya asosida ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini baholash uchun sinergetik ta'sirning integral koeffitsenti hisoblanadi:

$$I_{st} = \sqrt[3]{I_{bilim} * I_{ko'nikma} * I_{malaka}}$$

Bu yerda:

$I_{st}$  – sinergetik ta'sirning umumlashtiruvchi integral koeffitsenti.

$I_{bilim}$  – talabalar bilimi darajasidagi sinergetik ta'sirni tavsiflovchi integral koeffitsent.

$I_{ko'nikma}$  – talabalar ko'nikmalaridagi sinergetik ta'sirni tavsiflovchi integral koeffitsent.

$I_{malaka}$  – talabalar malakalaridagi sinergetik ta'sirni tavsiflovchi integral koeffitsent.



Ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda sinergiya jarayonini tahlil qilish uchun quyidagi zamonaviy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Resurslar taqsimoti samaradorligi (Resource Allocation Efficiency):

$$RAE = \frac{\text{Samarali ishlataladigan resurslar}}{\text{Jami mavjud resurlar}}$$

2. Ta’lim natijalari sinergetik ko‘rsatkichi (Synergistic Learning Outcomes):

$$SLO = \frac{\text{Tizimli yaxshilangan natijalar}}{\text{Avvalgi natijalar}}$$

3. Tizimning umumiyligi samaradorligi (Overall System Efficiency):

$$OSE = \frac{\text{Natijalar sifati}}{\text{Kiritilgan resurlar hajmi}}$$

Ta’lim xizmatlarini takomillashtirish jarayonida sinergiya jarayonlarini baholash va ularni optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlar innovatsion rivojlanish davrida katta ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan formulalar va texnologik yondashuvlar yordamida ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, talabalar malaka va ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Sinergiyaning samaradorligini baholashga doir tadqiqotlarni kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni tizimga integratsiya qilish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim xizmatlarining sifatini baholash jarayonida sinergiya iqtisodiy samaradorligini hisoblash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu samaradorlikni o‘lchashda ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning moliyaviy natijalari va ular bilan bog‘liq xarajatlarning dinamikasi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muassasalari faoliyati nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy ta’sirni kuchaytirish orqali bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan.



Sinergiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun qo'llaniladigan formulalardan biri quyidagicha ifodalanadi:

$$S = (I_{\text{birlashgandan keyin}} - I_{\text{birlashishdan oldin}}) - C_{\text{birlashish}}$$

Bu yerda:

- $S$  - Sinergiyaning sof iqtisodiy samaradorligi.
- $I_{\text{birlashgandan keyin}}$  - Birlashgandan yoki qo'shilgandan keyin erishilgan umumiyl daromad yoki foyda.
- $I_{\text{birlashishdan oldin}}$  - Birlashishdan oldindi umumiyl daromad yoki foyda (ikki tashkilot uchun alohida-alohida).

$C_{\text{birlashish}}$  - Birlashish jarayonidagi xarajatlar (masalan, moliyaviy, tashkilotlash va integratsiya xarajatlari).

Sinergiya jarayoni tashkilotlar yoki tizimlar birlashgandan keyin kutilgan natijani oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Agar sinergiyaning sof qiymati  $S > 0$  bo'lsa, bu birlashish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lganini bildiradi.

Agar  $S < 0$ , bu birlashishdan kelgan zarar yoki qo'shimcha xarajatlar sinergiyani to'liq o'zlashtira olmaganidan dalolat beradi.

Misol uchun:

Birlashishdan oldindi foyda:  $I_{\text{birlashishdan oldin}} = 100$  mlrd so'm.

Birlashgandan keyingi foyda:  $I_{\text{birlashgandan keyin}} = 130$  mlrd so'm.

Birlashish xarajatlari:  $C_{\text{birlashish}} = 20$  mlrd so'm.

$S = (130 - 100) - 20 = 10$  mlrd so'm.

Natija shuni ko'rsatadi, Sinergiya tufayli iqtisodiy samaradorlik 10 mlrd so'mni tashkil etdi.



Bu yerda daromad va xarajatlarning aniqligi ta’lim muassasasi moliyaviy hisobotlarining zamonaviy xalqaro standartlariga mos ravishda olib borilishiga bog‘liq. Ayniqsa, mahalliy va global raqamli ta’lim platformalari, xususiy sektor va davlat-hususiy sheriklik (PPP) orqali ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish kengaytirilayotgani bois, moliyaviy ko‘rsatkichlarni chuqur tahlil qilish dolzarb bo‘lib bormoqda.

Ta’lim xizmatlaridan tushadigan umumiy daromadlar ta’lim muassasalarining moliyaviy hisobotining 2-shakli (ta’lim xizmatlari bo‘yicha tushumlar) asosida aniqlanadi. Bu tushumlar odatda, o‘qish uchun to‘lovlar, stipendiyalar, grantlar va subsidiya mablag‘larini o‘z ichiga oladi, masofaviy ta’lim va onlayn kurslar orqali olinadigan daromadlarni qamrab oladi, raqamli platformalardan foydalanish xizmatlari va xususiy sektor bilan hamkorlikdan tushgan tushumlarni o‘z ichiga oladi.

### Faydalanimgan adabiyot va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdagi «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
4. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based



view // Strategic Management Journal. – 2015. –Т. 36. -№ 9.

5. O‘lmasovA. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – “Mexnat”- 1998.;
6. PardaevM.Q. Oila xo‘jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;
7. **Norqobilova. F. A.** International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-25